

“SIROJ UL-MUSLIMIN” VA “FIQH-UL AKBAR” ASARLARI MATNLARI MUQOYASASI

Gulruh Kenjaboy Mirzo qizi
ToshDO‘TAU I-kurs doktoranti

Kalit so'zlar: *Joiz, karomat, e'juz, mezon, isbot, munazzax.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Siroj ul-muslimin” asarida keltirilgan aqida masalalari yoritiladi hamda “Fuqh-ul akbar” asari matni bilan uyg'un va farqli jihatlari bayon qilinadi.*

She'riyat sultoni deya nom qozongan hazrat Navoiy islom olamida ham zabardast olimlar qatorida ko'plab asarlari bilan qalam tebratganliklariga birgina “Siroj ul-muslimin” asarlari ham yorqin dalil bo'ladi.

Asarning asosiy qismida hazrat Alisher Navoiy o'zlari aytganlaridek, dastavval aqoid hamda shariat hukmlari sharhiga to'xtalganlar. Bunda shoir islom ahkomi ikki qism: aqida va amal (shariat)dan iborat deb yozar ekanlar, aqida pok bo'lmasa, amalning ahamiyati yuqori bo'lmasligini ta'kidlaydilar.

Buyuk islom olamidagi to'rtta ahli sunna val jamoa mazhabining eng zabardast faqihlaridan bo'lgan Imom Abu Hanifa rahimahullohu alayhi hazratlari aqida ilmida ham o'zlarining “Fiqh-ul Akbar” asarlarini yozib, bu ilmga ham o'zlarining ulkan hissalarini qo'shganlar. Biz bu o'rinda mana shu ikki asarni muqoyasa qilar ekanmiz, hazrat Abu Hanifa rahimahullohning tavhidni quyidagicha bayon qilganlarini keltirib o'tamiz.

SEKKIZ SIFOTULLOHKIM, AQOID DOXILIDUR

Allohning sakkiz sifati bayoni

Ular ham aqidaga doirdir²⁰

Yana sakkiz sifatga e'tiqodda bo'l, men senga ular haqida yo'l-yo'riq ko'rsataman.

Ushbu sakkiz Haq taoloning sifati bo'lib, u zot ularning barchasida o'xshashlaridan munazzax – pokdir. U Hayy, A'lim, Qodir, Murid, Sami' va Nozir zotdir. Yana u zot so'zlovchi hamdir, bandalarning fe'llarini ham o'zi yaratgan Xoliqdir.

Uning na sherigi va na vaziri bor, uning na ulushdoshi va na naziri – o'xshashi bor. U zot bulardan pokdir. U javhar ham, araz ham emas, U hech bir zamon va makondga oid emas. Unga hech bir ashyo-narsa o'xshamaydi, O'zining “

«لَيْسَ كَمِثْلِهِ» – “U zotga o'xshash hech narsa yo'q” so'zi uning sha'nidir.

Uning kalomi ham qadimdir, olam esa hodisadir. Sen bularni yaxshilab anglab, fahmlab ol. Unga ko'ra, mo'min inson Allohning zamon va makondan munazzah – holi

²⁰ A.Navoiy. “Siroj ul-muslimin”. – Toshkent: Fan.2000.- B. 6.

ekaniga, sherigi yo‘qligiga, uning bezavol ilmiga, eshitish va ko‘rishiga, kalomiga, taqdir egasi ekaniga ishonishi shart. Hazrat Navoiy, shuningdek, Allohning o‘xshashi yo‘q, uning qudrati har qanday jismdan holi bo‘lib, bandalar kabi ehtiyojmand emasdir, degan islom aqidasiidagi fikrni uqtirar ekanlar, bunga isbot tariqasida “Sho‘ro” surasidagi 11-oyatni keltiradilar:

«لَيْسَ كَمِثْلِهِ شَيْءٌ وَهُوَ السَّمِيعُ الْبَصِيرُ»

“U Zotga o‘xshash hech narsa yo‘qdir. U Zot o‘ta eshitguvchi, o‘ta ko‘rguvchi Zotdir”.

وَاللَّهُ تَعَالَى وَاحِدٌ لَا مِنْ طَرِيقٍ الْعَدَدِ وَلَكِنْ مِنْ طَرِيقٍ أَنَّهُ لَا شَرِيكَ لَهُ قُلْ هُوَ اللَّهُ أَحَدٌ اللَّهُ الصَّمَدُ لَمْ يَلِدْ وَلَمْ يُولَدْ
وَلَمْ يَكُنْ لَهُ كُفُوًا أَحَدٌ. لَا يَشْبَهُ شَيْئًا مِنَ الْأَشْيَاءِ مِنْ خَلْقِهِ وَ لَا يُشَبِّهُهُ شَيْءٌ مِنْ خَلْقِهِ لَمْ يَزَلْ وَلَا يَزَالُ بِأَسْمَائِهِ وَ
صِفَاتِهِ الدَّائِمَةِ وَ الْفَعْلِيَّةِ

أَمَّا الدَّائِمَةُ فَالْحَيَاةُ وَالْقُدْرَةُ وَالْعِلْمُ وَ الْكَلَامُ وَالسَّمْعُ وَالْبَصَرُ وَ الْإِرَادَةُ ، وَ أَمَّا الْفَعْلِيَّةُ فَالتَّخْلِيقُ وَ التَّرْزِيقُ وَ
الْإِنشَاءُ وَ الْإِبْدَاعُ وَ الصَّنْعُ وَ عَيْرُ ذَلِكَ مِنْ صِفَاتِ الْفِعْلِ.

Alloh ismlari, zotiy va fe‘liy sifatleri bilan hamisha bo‘lgan va bo‘ladi. Tiriklik, qodirlik, bilish, so‘zlashish, eshitish, ko‘rish, xohlash Allohning zotiy sifatlaridir. Yaratish, rizq berish, paydo qilish, vujudga keltirish kabilar Allohning fe‘liy sifatlaridir. Alloh o‘z ismi va sifatleri bilan bo‘lgan va bo‘ladi. Allohning birorta ism sifati yangi paydo bo‘lmagan.

So‘ngra Alloh taoloning ismlari, zotiy va fe‘liy sifatleri bilan hamisha bo‘lganligi. Tiriklik, Qodirlik, Bilish, so‘zlashish, eshitish ko‘rish, xohlash Alloh taoloning zotiy sifatleri ekani, Yaratish, rizq berish, paydo qilish, vujudga keltirish kabi sifatleri esa Alloh taoloning fe‘liy sifatleri ekanini bayon qilish bilan birga Alloh taolo o‘z ismi va sifatleri bilan bo‘lgan va bo‘ladi. Allohning birorta ism sifati yangi paydo bo‘lmagan,-deya ta’kidlab o‘tganlar.

Bundan so‘ng hazrat Navoiy quyidagi aqidaviy narsalarni yozib o‘tganlar:

NECHAKIM HAQ BILMAKI AQIDADINDUR

Haq deb bilmoq aqidadan bo‘lgan bir necha narsalar bayoni

Yana bilkim, aqoiyid ichra mutlaq,

Necha ish keldi bilmak kerak haq.

Shularni bilki, aqoidda mutlaq haq deb bilish kerak bo‘lgan narsalar bor.

Azobi qabr erur kufr ahli xosiy,

Yana din ahlidin ba’zi bo‘lsa osiy.

Qabr azobi kufr ahliga xos, va yana shuningdek, ba’zi gunohkor din ahli ham

Yana ikki malakningdur savoli,

Yana ham Ro‘yatulloh ehtimoli²¹.

Yana ikki farishta (Munkar va Nakir) savolga tutmog‘i, Allohni ko‘rmoq ham haqdir.

²¹A.Navoiy. “Siroj ul-muslimin”. – Toshkent: Fan.2000.- B. 6.

Yana haq bir sirotu, yana mezon,

Yana do‘zax, yana firdavsi rizvon.

Sirot (ko‘prigi) va mezon, do‘zax va jannat ham haqdir.

Shafolat anbiyodin ham erur haq,

Muhammad barchaning sarxayli mutlaq.

Payg‘ambarlarning shafobati haq erur, shubhasiz Muhammad sollallohu alayhi vasallam barcha (maxluqotlar)ning mutloq sayyididir.

Yana haq keldi e‘joz anbiyog‘a,

Aningdekkim, karomat avliyog‘a.

Payg‘ambarlarga mo‘jiza berildi, xuddi shuningdek valiy zotlarga karomat hosil qilindi.

Yana bilgil aqoid ichra mahsub,

Ki, bo‘lmas eldin amru nahiy maslub.

Barcha (muslim va musulmalar)ning zimmasida amri ma‘ruf va nahyi munkar sobitdir, soqit bo‘lmas. Bu ham aqoidga doxil hukmdir.

Yana kufr anglag‘il tasdiqi kohin,

Nechukkim, Tengridin ma‘yusi emin.

Yana bilki, kohinni tasdiqlamoq kufrdir. Chunki bu Allohndan noumid bo‘lishdir.

Bu bobda esa hazrat Navoiy islom aqidasiidagi – qabr azobi, qabrdagi savol-javob, sirot ko‘prigi, tarozi, do‘zax, jannat, Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shafobati, nabiyalar mo‘jizalari, avliyolar karomati haq ekanini ta‘kidladilar, hamda kohinni tasdiq etish kufr ekanini ham aytib o‘tdilar.

Fiqh-ul akbar kitobida abu Hanifa rahimahulloh bu mavzuda quyidagilarni bayon qildilar.

وَسُؤَالٌ مُنْكَرٍ وَتَكْبِيرٌ حَقٌّ كَانَتْ فِي الْقَبْرِ وَ إِعَادَةُ الرُّوحِ إِلَى جَسَدِ الْعَبْدِ فِي قَبْرِهٖ حَقٌّ، وَ ضَعْفَةُ الْقَبْرِ وَ عَذَابُهُ حَقٌّ كَانَتْ لِلْكَفَّارِ كُلِّهِمْ وَ لِبَعْضِ عَصَاةِ الْمُسْلِمِينَ

Munkar va nakirning qabrda savol bermog‘i haq va bo‘lguvchidir. Qabrda bandaning jasadiga ruhning qaytarilishi haqdir. Qabrning siqishi hamda uning azobi kofirlarning barchasiga va ba‘zi osiy musulmonlarga haq va bo‘lguvchidir²².

وَ شَفَاعَةُ الْأَنْبِيَاءِ عَلَيْهِمُ الصَّلَاةُ وَ السَّلَامُ حَقٌّ وَ شَفَاعَةُ نَبِيِّنَا عَلَيْهِ الصَّلَاةُ وَ السَّلَامُ لِلْمُؤْمِنِينَ الْمُنْتَبِهِينَ وَ لِأَهْلِ الْكِبَائِرِ مِنْهُمْ الْمُسْتَوْجِبِينَ الْعِقَابِ حَقٌّ ثَابِتٌ. وَ وَزْنُ الْأَعْمَالِ بِالْمِيزَانِ يَوْمَ الْقِيَامَةِ حَقٌّ، وَ حَوْضُ النَّبِيِّ عَلَيْهِ الصَّلَاةُ وَ السَّلَامُ حَقٌّ، وَ الْقِصَاصُ فِيهَا بَيْنَ الْخُصُومِ بِالْحَسَنَاتِ يَوْمَ الْقِيَامَةِ حَقٌّ وَ إِنْ لَمْ تَكُنْ لَهُمُ الْحَسَنَاتُ فَطَرَحَ السَّيِّئَاتِ عَلَيْهِمْ حَقٌّ جَائِزٌ

Qiyomat kuni tarozida amallarning tortilishi haqdir. Payg‘ambarimizning sollallohu alayhi va sallam, jannatda hovuzlari borligi haqdir. Qiyomat kuni xusumatchilar o‘rtalarida bir-birlaridan yaxshi amallarini olib, qasos olishlari haqdir. Agar ularning yaxshi amallari bo‘lmasa, mazlumlarning yomon amallari zolimlarga ortilishi haq va joizdir.

²² Abdulqodir Abdurahim o‘g‘li. Aqoid darsligi, -Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot- matbaa birlashmasi. 2007.- B. 16.

وَالْجَنَّةُ وَالنَّارُ مَخْلُوقَتَانِ الْيَوْمَ لَا تَفْنَيَانِ أَبَدًا وَلَا تَمُوتُ الْحُورُ الْعَيْنُ أَبَدًا وَلَا يَفْنَى عِقَابُ اللَّهِ تَعَالَى وَثَوَابُهُ سَرْمَدًا. وَاللَّهُ تَعَالَى يَهْدِي مَنْ يَشَاءُ فَضْلًا مِنْهُ، وَيُضِلُّ مَنْ يَشَاءُ عَذْلًا مِنْهُ وَإِضْلَالُهُ خِذْلَانُهُ، وَتَفْسِيرُ الْخِذْلَانِ أَنْ لَا يُؤَفِّقَ الْعَبْدَ إِلَى مَا يَرْضَاهُ مِنْهُ وَهُوَ عَذْلٌ مِنْهُ، وَكَذَا عُقُوبَةُ الْمَخْذُولِ عَلَى الْمَعْصِيَةِ²³

Jannat va do‘zax hozir yaratib qo‘yilgandir, ular abadiy yo‘q bo‘lmaydilar. Hurlar ham abadiy o‘lmaydilar. Allohning iqobi va ajri yo‘q bo‘lmaydi, ular abadiydir. Alloh istagan bandasini fazl aylab, hidoyatga soladi. Istagan bandasini adl aylab, izlol etadi. Alloh taoloning izloli xizloniydir. Xizlonning tafsiri — O‘zi rozi bo‘ladigan amallarga bandani moyil qilmasligidir. Bu Allohning adlidir. Shuningdek, moyil qilinmaganni gunoh uchun jazolash ham adolatdir. Biz, shayton mo‘min bandaning imonini zo‘rlab, qahr qilib tortib oladi, demaymiz. Balki biz, banda oldin imonini tark etadi, ana shu vaqtda shay-ton undan imonini tortib oladi, deymiz.

وَ شَفَاعَةُ الْأَنْبِيَاءِ عَلَيْهِمُ الصَّلَاةُ وَالسَّلَامُ حَقٌّ وَ شَفَاعَةُ نَبِيِّنَا عَلَيْهِ الصَّلَاةُ وَالسَّلَامُ لِلْمُؤْمِنِينَ الْمُذْنِبِينَ وَ لِأَهْلِ الْكِبَائِرِ مِنْهُمْ الْمُسْتَوْجِبِينَ الْعِقَابِ حَقٌّ ثَابِتٌ. وَ وَزْنُ الْأَعْمَالِ بِالْمِيزَانِ يَوْمَ الْقِيَامَةِ حَقٌّ، وَ حَوْضُ النَّبِيِّ عَلَيْهِ الصَّلَاةُ وَالسَّلَامُ حَقٌّ، وَ الْقِصَاصُ فِيهَا بَيْنَ الْخُصُومِ بِالْحَسَنَاتِ يَوْمَ الْقِيَامَةِ حَقٌّ وَ إِنْ لَمْ تَكُنْ لَهُمُ الْحَسَنَاتِ فَطَرَحُ السَّيِّئَاتِ عَلَيْهِمْ حَقٌّ جَائِزٌ²⁴

Payg‘ambarlarning, alayhimussalom, shariatlari haqdir va Payg‘ambarimizning, alayhissalom, gunohkor va azobu uqubatga loyiq bo‘lgan, gunohi kabira qilgan mo‘min bandalarni shafolat qilishlari haqdir. — Qiyomat kuni tarozida amallarning tortilishi haqdir. Payg‘ambarimizning sollallohu alayhi va sallam jannatda hovuzlari borligi haqdir. Qiyomat kuni xusumatchilar o‘rtalarida bir-birlaridan yaxshi amallarini olib, qasos olishlari haqdir. Agar ularning yaxshi amallari bo‘lmasa, mazlumlarning yomon amallari zolimlarga ortilishi haq va joizdir.

وَ الْآيَاتُ ثَابِتَةٌ لِلْأَنْبِيَاءِ وَ الْكَرَامَاتُ لِلْأَوْلِيَاءِ حَقٌّ ، وَ أَمَّا الَّتِي تَكُونُ لِأَعْدَائِهِ مِثْلُ إِبْلِيسَ وَ فِرْعَوْنَ وَ الدَّجَالِ مِمَّا رُوِيَ فِي الْأَخْبَارِ أَنَّهُ كَانَ وَ يَكُونُ لَهُمْ لَا تُسَمِّيهَا آيَاتٍ وَ لَا كَرَامَاتٍ ، وَ لَكِنْ تُسَمِّيهَا قَضَاءَ حَاجَاتِ لَهُمْ ، وَ ذَلِكَ لِأَنَّ اللَّهَ تَعَالَى يَقْضِي حَاجَاتِ أَعْدَائِهِ إِسْتِدْرَاجًا لَهُمْ وَ عُقُوبَةً لَهُمْ فَيَعْتَرُونَ بِهِ وَ يَزْدَادُونَ طُغْيَانًا وَ كُفْرًا وَ ذَلِكَ كُلُّهُ جَائِزٌ وَ مُمَكِّنٌ

Payg‘ambarlar mo‘jizalari, avliyolarning karomatlari haqdir. Ammo Allohning dushmanlari — Iblis, Fir‘avn, Dajjol kabilarda bo‘lgan va bo‘ladigan mo‘jiza va odatdan tashqari ishlarni karomat ham deb atamaymiz. Bularni biz ularning hojatlarni chiqarish deb ataymiz. Chunki Alloh dushmanlarini dunyoda g‘ururda, oxiratda azobda qolishi uchun hojatlarni ravo qiladi. Ular bu bilan mag‘rurlanib, kufru tug‘yonda haddan oshib ketadilar. Bu mumkindir²⁵.

Ya‘ni, Munkar va nakirning qabrda savol bermog‘i haq va bo‘lguvchidir. Qabrda bandaning jasadiga ruhning qaytarilishi haqdir. Qabrning siqishi hamda uning azobi kofirlarning barchasiga va ba‘zi osiy musulmonlarga haq va bo‘lguvchi ekanligini, qiyomat kuni tarozida amallarning tortilishi haqligi, Payg‘ambarimizning sollallohu alayhi va sallam jannatda hovuzlari borligi haqligi, qiyomat kuni xusumatchilar

²³ Abdulqodir Pardayev. Sharhu aqidatil Imom at Tahoviyya; Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2018.- B. 29

²⁴ Abdulqodir Abdurahim o‘g‘li. Aqid darsligi, -Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot- matbaa birlashmasi. 2007.- B. 16.

²⁵ Abdulqodir Pardayev. Sharhu aqidatil Imom at Tahoviyya; Toshkent: Toshkent islom universiteti nashriyot-matbaa birlashmasi. 2018.- B. 29

oʻrtalarida bir-birlaridan yaxshi amallarini olib, qasos olishlari haqligi, agar ularning yaxshi amallari boʻlmasa, mazlumlarning yomon amallari zolimlarga ortilishi haq va joizligi, jannat va doʻzax hozir yaratib qoʻyilgani, ular abadiy yoʻq boʻlmasligi, Hurlar ham abadiy oʻlmasligi Allohning iqobi va ajri yoʻq boʻlmasligi, ular abadiyligi, Alloh istagan bandasini fazl aylab, hidoyatga solishi, Istagan bandasini adl aylab, izlol etishi, Alloh taoloning izloli xizloniyiligi, Xizlonning tafsiri — Oʻzi rozi boʻladigan amallarga bandani moyil qilmasligidir. Bu Allohning adlidir. Shuningdek, moyil qilinmaganni gunoh uchun jazolash ham adolatdir. Biz, shayton moʻmin bandaning imonini zoʻrlab, qahr qilib tortib oladi, demaymiz. Balki biz, banda oldin imonini tark etadi, ana shu vaqtda shay-ton undan imonini tortib oladi, deymiz.

Paygʻambarlarning alayhimussalom shariatlari haqligi va Paygʻambarimizning, alayhissalom, gunohkor va azob-u uqubatga loyiq boʻlgan, gunohi kabira qilgan moʻmin bandalarni shafolat qilishlari haqligi. — Qiyomat kuni tarozida amallarning tortilishi haqligi, Paygʻambarimizning sollallohu alayhi va sallam jannatda hovuzlari borligining haqligi, qiyomat kuni xusumatchilar oʻrtalarida bir-birlaridan yaxshi amallarini olib, qasos olishlari haqligi, agar ularning yaxshi amallari boʻlmasa, mazlumlarning yomon amallari zolimlarga ortilishi haq va joizligi, Paygʻambarlar moʻjizalari, avliyolarning karomatlari haqligini, Ammo Allohning dushmanlari — Iblis, Firʻavn, Dajjol kabilarda boʻlgan va boʻladigan moʻjiza va odatdan tashqari ishlarni karomat ham deb atamaymiz. Bularni biz ularning hojatlarini chiqarish deb ataymiz. Chunki Alloh dushmanlarini dunyoda gʻururda, oxiratda azobda qolishi uchun hojatlarini ravo qiladi. Ular bu bilan magʻrurlanib, kufru tugʻyonda haddan oshib ketadilar. Bu mumkindir deb bayon qildilar.

Islom aqidasi shartlari bayonidan soʻng Alisher Navoiy islom ahkomlarini yoritadi. Bunda shoir islom dini farzlari – tahorat, gʻusl, namoz, zakot, ramazon roʻzasi, haj bilan bogʻliq shariat hukmlarini batafsil bayon etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Alisher Navoiy / “Siroj ul-muslimin”. –T:Fan-2000
2. Imom Buxoriy / “Oltin silsila”, 1-juz. –T:Hilol-nashr-2021
3. Ubaydulloh ibn Mas'ud / “Muxtasarul viqoya”. –T:Movarounnahr-2010
4. Shayx Abdulaziz Mansur / “Qur'oni Karim ma'nolari tarjimai va tafsiri”. –T:TIU-2004
5. “Hidoya” asari 1-juz. Burhoniddin Margʻinoniy – Toshkent: 2022.